

# Xurshid Do'stmuhammad qissalarida obrazlarning psixologik olami ("Nigoh" qissasi misolida)

Zarina Sadriddinovna Jalilova  
jalilovazarina9389@gmail.com  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammad asarlarining yangi davr nasrida tutgan o'rnini qissalari misolida tahlil qilish muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** qissa, obraz, psixologik metod, konflikt, mahorat, psixologik tahlil, badiiy g'oya, ruhiyat, xarakter, personaj.

## The psychological world of images in the stories of Khurshid Dostmuhammad (on the example of the story "Nigoh")

Zarina Sadriddinovna Jalilova  
jalilovazarina9389@gmail.com  
Bukhara State University

**Abstract:** This article discusses the analysis of the role of Khurshid Dostmuhammad's works in the prose of the new period on the example of short stories.

**Keywords:** story, image, psychological method, conflict, skill, psychological analysis, artistic idea, psyche, character, character.

*Kirish.* Badiiy adabiyotning qaysi janrida bo'lmasin, qahramoning ichki olamiga alohida e'tibor beriladi. Ruhiyat olamiga e'tiborning kundan kun ortib borishi bugungi milliy istiqlol davrimizdagi badiiy tafakkurning oldiga qo'ygan vazifasilaridan kelib chiqmoqda. Qissaga xos asosiy xususiyatlar shundaki, mazkur turdagi asar markaziga qo'yilgan masala yoki muammo faqat bir shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Yozuvchi X.Do'stmuhammad qissalarida ham shunday shakliy izlanishlar mavjud. So'nggi yillarda o'zbek adabiy tanqidchiligida modernizm va modern adabiyoti haqida ko'plab bahs-munozaralar bildirilyapti. Jumladan, Adibning asarlari ham ko'plab bahs-muhokamalarga sabab bo'lib kelyapti, buni qissalari misolida ham ko'rish mumkin.

*Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.* Ijodkorning "Nigoh" nomli dastlabki qissasi 1987-yil "Yoshlik" jurnalida chop etilgan. Mazkur qissada Adib qahramon tanlash, xarakter yaratish kabi jihatlaega jiddiy e'tibor qaratgan desak mubolag'a

bo'lmaydi. Rus ruhiyatshunoslik ilm darg'asi S.L.Rubinshteyn "Xarakter haqida gapirganda, u odatda shaxsning barcha ko'rinishlarida ma'lum bir iz qoldiradigan va unga dunyoga, avvalambor boshqa odamlarga nisbatan o'ziga xos munosabatini bildiradigan xususiyatlar jamlanmasini anglatadi." Ushbu fikr mazkur qissadagi bosh qahramon xarakterini qanday ekanligini tushunib olishda ko'mak beradi va "shaxsning ichki xususiyatlari" deya terminga yanada aniqlik kiritadi. X.Do'stmuhammad personaj xarakterini yaratgan ekan, uni ruhiyatini bevosita va bilvosita ochib berishi mumkin. Adib qissalarida qahramonlarning ichki olamiga alohida urg'u beriladi va fikriy izlanishlarini tahlil etishga, uning eng intim qatlamlarini tasvirlashga intiladi. Psixologik tasvirga moyilligi F.Dostoevskiy, F.Kafka, F.Ryunokse, G.Markes singari jahon adabiyoti namoyondalari uslublaridan ta'sirlanganini ko'rsatadi. Adibning ushbu qissasini tahlil qiladigan bo'lsak, albatta, psixologik tahlilga murojaat qilish mumkin. "Psixologik tahlil va obrazning o'z-o'zini taftish qilishi singari usullar ham ruhiy tasvir puxtaligiga xizmat qiladi". [1] O'z-o'zini taftish qilish holatlari Bek personaji orqali o'z aksini topgan desak yanglishmaymiz. Buni quyidagi misol orqali ko'rish mumkin. Qissa tramvayning "Volga" ga kelib urilishidan boshlanadi. Asarning bosh qahramoni Bek dispatcher ayolning ko'zidagi dahshat a'lomatini ko'rgach, nima ish qilganini fahmlaydi. Shu jarayondan so'ng qahramonning hayotida ziddiyatli burilishlar sodir bo'la boshlaydi. Bek personajining xarakteri, ichki olami shunday ediki, unda beparvolik, loqaydlik hissi kuchli edi. Ayolning kasalxonada yotib qolishi, undan hol-ahvol so'ramagani uning jamiyatga, insonlar taqdiriga naqadar loqaydligini bildiradi. Bunday insonlar ma'naviy qoloqlikka uchragan desak, yanglishmaymiz. Ammo yozuvchining mahorati kuchli bo'lsa, u bunday xarakterli insonlarga teskari xarakterli shaxslarni yarata oladi voqea jarayonida

*Muhokama.* Adibning ushbu qissasida qahramoni, aslida Bek harakatchan qahramon emas. Bir ishda qotib qoladigan, do'stining nazdida zerikarli shaxs edi. Lekin "tanganing boshqa tomoni ham bor" degan jumlagam amal qilinadigan bo'lsa, bosh qahramonda g'urur, oilaga sadoqat, farzandlarga mehr-oqibat hissi kuchli edi. Eng avvalo, or-nomusni birinchi o'ringa qo'ya oladigan obraz sifatida gavdalanadi asarda. Adabiyotshunos Izzat Sultonning fikricha, "Yozuvchining zamona kishilarining ehtiyojlariga yaqinligi uni kelajak avlod kishilaridan uzoqlashtirmaydi, chunki hamma davrlar va xalqlar orasida, ularning psixologiyasi, ma'naviy va estetik ehtiyojlarida doimo umumiylik saqlanadi" [2]. Xurshid Do'stmuhammad Bek orqali shunday umumiylikni saqlab qoladi. Ya'ni shaharga muhim ish bilan kelgan qahramonning do'sti O'ktamga aytgan so'zlari va undan keying afsuslanishlari ifodalangan o'rinlari orqali namoyon bo'ladi. Bek do'stiga qo'pollik qilgan bo'lsa

<sup>1</sup> Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. -Toshkent, 2016, 206-bet

<sup>2</sup> Izzat Sulton, Adabiyot nazariyasi. - Toshkent "O'qituvchi" 1986 50-bet

ham, u o'zining qo'polligini tan olishi, shuning uchun ham ko'nglining tub- tubidan uzr so'ragani, qisman bo'lsa ham aybdorligini sezganlaigining tasviri ifodalanadi. Qissaning boshidan oxiriga qadar shu jarayon, ya'ni bosh qahramonning o'zini-o'zi taftish qilish holati davom etib, uning voqeaga, umuman olganda, butun bir hayotga nisbatan munosabati mahorat bilan aks ettirilgan. Bosh qahramon nega Dalavoyni uyidan chiqarganini yozuvchi shunday mahorat bilan aks ettiradiki, Bek buning sababini hech kimga bildirmaydi. Bizningcha ijodkor adabiyotshunoslikning realistik metodidan foydalangan desak, adashmagan bo'lamiz. Izzat Sulton yozishicha, "Voqelikni to'g'ri tushunish va uni hamma ziddiyatlar bilan badiiy obrazlarda haqqoniy i'nikos ettirish realizm deb ataladi. M.Gorkiy ta'rificha, kishilarni va ularning hayot sharoitini bezamasdan, rost tasvirlashni talab etadi". [3] Yozuvchi X.Do'stmuhammad ham aynan shunday usuldan foydalangan bo'lib hayot uchraydigan insonlarni Bek misolida ko'rsatib bergan. Aybni ayolning o'ziga yuklaydi va asarning boshidan oxiriga qadar hayotdan haqiqat izlaydi. O'zining ichki olami bilan tinimsiz kurashadi. Bu jihatlar uni to'la oqlashga sabab bo'la olmaydi. Chunki jamiyat oldida o'zining loqaydligini, insonlar hayotiga befarqligini o'zining xatti-harakati orqali namoyon qildi. Yozuvchi hayotda shunday insonlar borligiga ishora qilmoqchi va kelajak avlodni bunday toifadagi insonlardan himoya qiladi [4]. "Ikki oylar burun, nok ostidagi o'rindiqda to'rt - besh haydovchi ilmiliq qish oftobida toblanib o'tirishgan edi. Amaki qo'yarda-qo'ymay suygan hikoyasini boshlaganida Bek o'zini tutolmay qoldi-dilidagi tiliga ko'chdi: "O'zingizni oqlaysizmi - yo'qmi, shu taxlit yashashingizga bari bir qoyil emasman. Harna bo'lganda ham odamlar orasida, el qatori hayot kechirishi kerak odam", - deb yubordi. X.Do'stmuhammad asarlarida asosiy g'oyalar insonning ko'ngliga kirib bora olishi bilan ta'sirlidir. Bekning psixologiyasida shunday bir jihatlarni yoritib bermoqchi, ya'ni ayolning "Volga" mashinasini urib yuborganda ham o'zining aybi bilan bo'lgan deya o'z - o'ziga dalda berishi orqali ko'rishimiz yoki hamma tumonat odamlar yig'ilgan bir paytda bir insoning taqdiri, hayoti hal bo'layotgan paytda qahramonga bu narsalar ahamiyatsizdek tuyulishini his qilishimiz mumkin. Bek orqali ham kitobxon undagi loqaydlikni bir tarafga qo'ysa, albatta, bu jamiyatimizga zid bo'lgan tomoni hisoblansa, uning mustaqil fikrli, halol, o'z so'zida turadigan bir shaxs sifatidagi harakteri orqali bir nimani uqtirmoqchi bo'ladi. Qahramonning ichki xarakterini tahlil qilish ya'ni psixologizmatamasi turlicha talqin va ta'rifalrga ega bo'lib, Rus adabiyotshunoslik terminlari qomusida "Psixologizm adabiyotda - qahramonlar ichki olami: ularning o'y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va batafsil

<sup>3</sup>Izzat Sulton, Adabiyot nazariyasi. -Toshkent "O'qituvchi" 1986 378-bet.

<sup>4</sup> X.Do'stmuhammad. Qissa- Toshkent "Yangi asr avlodi" 37-bet

tasviri" [5]. Badiiy sarning hayotiy, tarbiyaviy va hokazo ahamiyatlarini anglashi lozim o'quvchi.

*Xulosa.* Xurshid Do'stmuhammad ham milliy adabiy an'alarini ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga, adabiyotga yangicha uslublar olib kirishga intilayotgan ijodkorlardan biri. Adib ham mana shunday yangilikka intiluvchi ijodkordir va asarlari undagi qahramonlari orqali, ulardagi ruhiy ichki olam tushunchalari misolida asar g'oyasini ochib bera olgan. "Nigoh" qissasi orqali insonning pinhon dunyosi - xayollari, ichki iztiroblarini voqealar rivojida ko'rsatib beradi. Asarda milliy qadriyatlarga ham urg'u berib o'tadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xurshid Do'stmuhammad. "Qissa". Toshkent -Yangi asr avlodi. 36-bet
2. Xolbekov M. Modernizm. [www.gglit.uz](http://www.gglit.uz)
3. Izzat Sulton, Adabiyot nazariyasi. -Toshkent "O'qituvchi" 1986 50-bet
4. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. -Toshkent, 2016, 206-bet
5. X.Do'stmuhammad. Ramziy obrazlar yaratish // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1990, 3-son

---

<sup>5</sup> Литературная энциклопедия терминов и понятий ; под ред. А . Н. Николюкина.